

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 303 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'la'kov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari	230
Mirzayev Kobii Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	
SWOT-анализ использования социальных сетей в туристической индустрии узбекистана	279
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
Germaniya tajribasidan foydalanish orqali o'zbekistonda turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari	287
Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi, Ochilov Akram Odilovich	
Blockchain texnologiyasining bank operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni	291
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
Tijorat banklarini reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalanish yo'llari	294
Karabaev Nodir Abduhamidovich	



TIJORAT BANKLARINI REYTINGINI ANIQLASHDA BANKOMETR MODELIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Karabaev Nodir Abduhamidovich

“El-yurt umidi” jamg'armasi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalangan holda, respublikamizda faoliyat olib borayotgan yirik banklarning ko'rsatkichlari asosida tahlil qilingan. Bankometr usulida tijorat banklarining 6 ta koeffitsient natijalari asosida ularning barqarorligi tahliliga asoslangan mezonlar bo'yicha reytingi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: banklarning barqarorligi, reytingni aniqlash metodlari, bankometr usuli, kapital, aktivlar, kapital etarlilik koeffitsienti, muammoli kreditlar, sof foizli daromad, sof foizli xarajatlar.

Abstract: This article analyzes the rating of commercial banks based on the indicators of a large banking institution operating in our republic using the bankometer model. In the bankometer method, the rating of commercial banks is based on criteria established by analyzing their stability based on the results of applying 6 coefficients.

Key words: bank stability, rating methods, bankometer method, capital, assets, capital adequacy ratio, problem loans, net interest income, net interest expenses.

Аннотация: В данной статье анализируется рейтинг коммерческих банков на основе показателей крупного банковского учреждения, действующего в нашей республике, с использованием модели банкометра. В методе банкометра рейтинг коммерческих банков составляется на основе критериев, установленных на основе анализа их устойчивости по результатам применения 6 коэффициентов.

Ключевые слова: устойчивость банка, методы определения рейтинга, метод банкометра, капитал, активы, коэффициент достаточности капитала, проблемные кредиты, чистый процентный доход, чистые процентные расходы.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (Markaziy bank) asosiy maqsadlaridan biri bank tizimining barqarorligini ta'minlashdan iboratdir ("O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun, 5-modda) [1]. Ushbu maqsaddan kelib chiqib Markaziy bank doimiy ravishda tizimli xatarlarni oldini olishga qaratilgan makroprudensial siyosat vositalaridan foydalanib keladi.

O'zbekistonda moliya tizimida muhim islohotlar, xususan banklar faoliyatining transformasiyasi, yirik davlat banklarini xususiyashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Davom etayotgan ushbu islohotlar bank tizimida yuqori raqobatni shakllantirgan holda banklarning tavakkalchilikka bo'lgan moyilligining oshishiga olib kelish ehtimoli yuqori. Bundan tashqari, kelajakda iqlim o'zgarishining moliyaviy barqarorlikka ta'siri bilan bog'liq vaziyat tobora murakkablashib borishi kutilmoqda. Bu esa, Markaziy bank o'zining makroprudensial siyosat yondashuvini aniq belgilab olishini taqozo etmoqda.

2023-yil I yarim yilligida moliyaviy sharoitlar biroq qat'iylashishiga qaramasdan, O'zbekiston bank tizimida moliyaviy barqarorlik saqlanib qolindi. Bunda, pul bozorida turg'unlik, xorijiy valyuta bozoridagi yuqori o'zgaruvchanlik va bank sektoridagi noaniqliklarning ortishi kuzatildi. Ushbu davrda kapital monandlilik hamda likvidlilik ko'rsatkichlarida pasayish kuzatilgan bo'lsada, mazkur ko'rsatkichlar o'rnatilgan minimal talablardan yuqori bo'ldi. Shuningdek, bank tizimida daromadlilik ko'rsatkichlari oshdi. Bank tizimida yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushining pasayish tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi past darajani tashkil etib, kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash maqsadida yaratilgan zaxiralar bilan ta'minlanganlik darajasi oshdi[2].



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmonining¹ 50 maqsadida "Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish"da "Banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish" vazifasi kiritilgan[3]. Ushbu vazifani amalga oshirishda tijorat banklarini xalqaro amaliyotda keng qo'llanilib kelayotgan barqarorligini ta'minlash asosida ularni reyting o'rnini belgilab borish metodlaridan foydalanish bugungi kunning muhim dolzarb masalalari hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank sektorining moliyaviy barqarorligi farovon va barqaror iqtisodiyotning asosiy shartidir. Shu nuqtai nazardan, bankning rentabelligi va bank moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqilib, bank hajmi, institusional sifati va bozor konsentrasiyasining roli aniq aks ettirilgan. 2005–2020-yillarda Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrikada faoliyat yurituvchi 776 ta bankning namunasi panel regressiyasi va GMM asoslari yordamida o'rganilgan. Bunda "bank rentabelligi moliya tizimining barqarorligini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi", degan xulosaga kelishgan [4].

Olib borilgan tadqiqotlarda raqobatning ta'siri banklarning ko'rsatkichlariga hamda uning reytingini pasayishiga olib kelishi asoslab berilgan. "Raqobatning mo'rtligi" haqidagi an'anaviy nuqtai nazarga ko'ra, bank raqobatining kuchayishi bozor kuchini pasaytiradi, foyda marjasini pasaytiradi va franchayzing xarajatlarini kamaytirishga olib keladi, bu esa bank tavakkalchiligini rag'batlantiradi. Muqobil "raqobat barqarorligi" nuqtai nazariga ko'ra, kredit bozorida bozor kuchining oshishi bank xavfining oshishiga olib kelishi mumkin, chunki kreditlar bo'yicha mijozlardan olinadigan yuqori foiz stavkalari kreditlarni qaytarishni qiyinlashtiradi va ma'naviy xavf va salbiy tanlov muammolarini kuchaytiradi. Natijada bankning reytingi kutilmagan holatda pasayib ketishi mumkin [5].

Iroqlik olimlar Iroq moliya institutlarida moliyaviy muvaffaqiyatsizlikni bashorat qilish uchun Bankometr S-Score va S-Score modelining mosligini tekshirishgan. Tadqiqot uchun namuna Iroq Markaziy banki vasiyligi ostidagi bir qator xususiy Iroq banklari bo'lgan va bu namunani tanlash sababi moliyaviy muvaffaqiyatsizlikni bashorat qilishda Bankometr S-Score modelining to'g'riligini sinab ko'rish asosiy maqsad bo'lgan. Tadqiqot shuni ko'rsatganki, Bankometr modeli Iroq moliya institutlarida moliyaviy muvaffaqiyatsizlikni bashorat qilish uchun qabul qilinishi mumkin, chunki tadqiqot uchun tanlangan banklarning S-bali va S-bali <50 standart chegarasida edi, bu moliyaviy tanglik holatini ko'rsatgan [6].

Xuddi shunday tadqiqotlar Indoneziya va Malayziya banklari asosida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot bankrotlikka faqat likvidlik, kredit va kapital ta'sir qilishini ko'rsatgan. Bankometr hisob-kitoblari, shuningdek, Indoneziya va Malayziya banklari bankrot yoki nosog'lomlikdan yiroq ekanligini asoslab bergan [7].

TAHLIL VA NATIJALAR

Bankning barqarorligini tahlil qilish uchun ko'plab modellar mavjud, ular orasida Bankometr yaqinda ishlab chiqilgan va bank barqarorligini sintez qilish uchun CAMELS tizimi va CLSA-stress test parametrlaridan olingan moliyaviy koeffisientlarni foizlarda ozgina o'zgartirilgan holda ishlatadigan oddiy yondashuv. Ushbu modelda bankning mustahkamligi to'lov qobiliyati balli (S-Score) deb ataladigan ball bilan o'lchanadi. To'lovga layoqatsizlik bilan bog'liq muammolarni aniqlash va Bankometr yondashuvida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishda ushbu holat bankning ichki boshqaruvi uchun foydali bo'lishi mumkin. Undan nafaqat jismoniy shaxslar, balki nazorat qiluvchi organlar ham istalgan bankning barqarorligi yoki to'lov qobiliyati holatini bir zumda ko'rib chiqish uchun foydalanishlari mumkin. XVF tavsiyalaridan so'ng, tadqiqotchi tashabbusni o'z zimmasiga oldi va minimal parametrlar soni bilan maksimal aniq natijalarni ta'minlash sifatiga ega Bankometr deb nomlangan keng qamrovli usuldan foydalandi. Uning umumiy ko'rinishi, "Bankometr" modelining ifodasi quyidagicha [8]:

$$S = 1,5X1 + 1,2X2 + 3,5X3 + 0,6X4 + 0,3X5 + 0,4X6$$

Bu erda, "S" to'lov qobiliyatini anglatadi, bu qaram o'zgaruvchidir. Ushbu modeldagi mustaqil o'zgaruvchilar quyidagicha:

- $X1$ = kapitalning aktivlarga nisbati (CA): $\geq 4\%$
- $X2$ = sof kapitalning aktivlarga nisbati (EA): $\geq 2\%$
- $X3$ = kapital etarililik darajasi (CAR): $40\% \leq CAR \leq 8\%$
- $X4$ = ishlaymaydigan kreditlarning umumiy kreditlarga nisbati (NPL): $\leq 15\%$
- $X5$ = xarajatning daromadga nisbati (CI): $\leq 40\%$
- $X6$ = kreditlarning aktivlarga nisbati (LA): $\leq 65\%$

1 lex.uz/docs/6600413



Biroq, yuqorida ko'rsatilgan foizlar mavjud bo'lgan bankni tushuntiradi:

- CAR nisbati 8% dan 40% gacha;
- CA nisbati 4% dan yuqori;
- EA nisbati 2% dan ortiq;
- Nazorat ostidagi NPL darajasi 15% dan past;
- CI koeffitsienti 40% dan kam saqlanib qolgan;
- 65% dan past bo'lgan LA nisbatini nazorat qilish orqali likvidlikni saqlab qolish.

Bankometr tasnifi bo'yicha "Super Sound Bank" deb tasniflanishi mumkin. Bankning moliyaviy inqirozga qarshi zaifligini bashorat qilish banklar, kreditorlar va investorlar uchun juda muhim masaladir. Bank to'lovga layoqatsiz bo'lganida, kreditorlar asosiy qarz va foiz to'lovlarning bir qismini yo'qotish tufayli mahrum bo'lishadi, aksiyadorlar esa barcha investisiyalarini yo'qotishi mumkin. Agar bank moliyaviy tanglikdan keyin faoliyatini tiklasa ham, bankning omon qolish uchun katta xarajatlari tufayli bankning kelajakdagi o'sishi sezilarli darajada to'sqinlik qiladi.

Mezon: "S" qiymati 70 dan yuqori bo'lgan banklar to'lovga layoqatli bo'lib, "Super Sound Bank" (qulay moliyaviy ahvolga ega), "S" qiymati 50 dan kam bo'lgan banklar esa "To'lovga layoqatsiz" (yuqori xavf ostida bo'lgan) deb nomlanadi. Moliyaviy tanglik 50 dan 70 gacha bo'lgan "S" qiymatiga ega bo'lgan banklar o'rtacha holatda va xatolar tasnifiga moyilligi sababli "Kulrang zona"ga ($50 < S < 70$ oralig'idagi maydon) tasniflanishi mumkin.

Ushbu reyting metodologiyasi global miqyosdagi moliya institutlariga, shu jumladan banklarga va bankdan tashqari moliya institutlarining keng doirasiga kredit reytinglarini belgilashga yondashuvimizni tushuntiradi. Ushbu modeldan foydalangan holda respublikamizda faoliyat olib borayotgan 4 yirik tijorat banklarimizni tahlil qilamiz. Ushbu banklarning 2023-yilda xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan reyting baholari quyidagicha bo'lgan.

1-jadval. xalqaro reyting agentliklari tomonidan tijorat banklariga berilgan reyting baholari to'g'risidama'lumot[9].

№	Banklar nomi	Reyting agentligi nomi	Reyting bahosi
1.	Ipotekabank	"Mudis" "Standart end Purs"	"Barqaror" "Barqaror"
2.	Biznesni rivojlantirish banki	"Mudis"	"Barqaror"
3.	Mikrokreditbank	"Fitch Reytings"	"Barqaror"
4.	O'zsanoatqurilishbank	"Standart end Purs" "Fitch Reytings"	"Barqaror" "Barqaror"

Oxirgi besh yil davomida, Jahon banki ta'kidlaganidek, O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirishga erishish va makroiqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish maqsadida "o'tish davri siyosati"ni amalga oshirmoqda. Ushbu siyosat doirasida mamlakat hukumati 2025-yilga qadar oltita bankni xususiylashtirishni rejalashtirmoqda (shunday qilib, sektor aktivlarida davlat banklarining ulushi yarmidan ko'proqqa qisqarishi kerak) va banklar o'z biznes modellarini sezilarli darajada qayta qurishlari kerak. Rentabellikni oshirish va investisiya jozibadorligini hamda korporativ boshqaruv amaliyotini yaxshilash maqsadida xalqaro moliya tashkilotlarining yordami kerak bo'ladi. Banklar uchun asosiy xatarlardan Fitch kreditlarning dollarlashuvining yuqori darajasini va uzoq mudдатli investisiya kreditlarining katta hajmini aniqladi, ularni to'lash uchun davlat banklari uch yilgacha bo'lgan imtiyozli davrni taqdim etadi. Shu bilan birga, birorta ham mamlakat banki xalqaro reyting agentliklari tomonidan investisiya darajasida baholanmagan – barcha reytinglar spekulativ toifaga kiradi."

Davlat ulushiga ega bo'lgan yirik banklar orasida "Mikrokreditbank" 11-o'rin, "Agrobank" 12-o'rin, "O'zsanoatqurilishbank" 14-o'rin, "Turonbank" 16-o'rin va "Asakabank" 17-o'rinni saqlab qolgan [10]. Tahlil qilinayotgan banklarimizda bankometr modeli asosida zarur bo'ladigan ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz.

Buning uchun tijorat banklarining yillik hisobotlaridan foydalangan holda ularning ko'rsatkichlarini hisoblaymiz. Birinchi ko'rsatkich sifatida tijorat banklarining muammoli kreditlar bo'yicha besh yillik ma'lumotini keltirib o'tamiz.



2-jadval. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida ma'lumot (%) [11].

№	Banklarning nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	1,3	2,3	3,3	2,5	4,7
2.	Biznesni rivojlantirish banki	2,0	1,5	4,3	3,9	8,9
3.	Mikrokredit bank	4,5	4,0	5,9	4,8	6,0
4.	O'zsanoatqurilish bank	0,19	1,0	3,8	2,8	2,2

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida muammoli kreditlar ulushi 19 foizdan 16 foizga pasaygani, 6,5 mingdan ziyod mahallada muammoli qarzdorlik qolmagani ta'kidlandi. Lekin haligacha qariyb 3 trillion so'mlik kreditlar qaytmagan. Banklar kesimida eng ko'p muammoli kreditlar Xalq banki, "Mikrokreditbank" va "Agrobank" hissasiga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Andijon, Namangan, Farg'ona, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida ishlar ahvoli qoniqarsiz. Bundan tashqari, hududlarda o'tkazilgan o'rganishlarda 2,5 mingta holatda 68 milliard so'm kreditlar maqsadsiz sarflangani aniqlangan.

Muammoli kreditlar miqdori yil boshidagi ko'rsatkichga (13,99 trln. so'm) nisbatan 2,63 trln. so'mga o'sib, yil yakunida 16,62 trln. so'mdan ortgan. Biznesni rivojlantirish banki (+1,1 trln. so'm), Ipoteka bank (+922,7 mlrd. so'm), O'zmilliybank (+459,9 mlrd. so'm), Agrobank (+385,2 mlrd. so'm) va Mikrokreditbank (+229,7 mlrd. so'm) larda muammoli kreditlar miqdoriy o'sishi nisbatan ko'proq bo'lgan. Yil davomida muammoli kreditlar miqdori o'sgan bo'lsa-da, kredit portfeli hajmining o'sishi hisobiga, NPL ulushi yil avvalidagi 3,59 foizdan 3,53 foizgacha tushgan.

3-jadval. Tijorat banklarining aktivlari to'g'risida ma'lumot (mlrd. so'm).

№	Banklarning nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	19755	23588	32410	40012	44187
2.	Biznesni rivojlantirish banki	9342	12709	15923	20708	24882
3.	Mikrokredit bank	3008	5890	10283	13483	16782
4.	O'zsanoatqurilish bank	30501	34698	49045	56511	62264

Tijorat banklarini aktivlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, tahlil qilinayotgan barcha banklarimizda aktivlar o'sish tendensiyasini saqlab qolgan. 2019-yilga nisbatan taqqoslaydigan bo'lsak, Ipoteka bankda 22,3% ga, Biznesni rivojlantirish bankida 26,6%ga, Mikrokredit bankda 55,7%ga hamda O'zsanoatqurilish bankida 20,4% ga oshishga erishilgan. 2022-yil bilan taqqoslaganda 2023-yilda Ipoteka bankda 4 175 mlrd. so'mga, Biznesni rivojlantirish bankida 4 174 mlrd. so'mga, Mikrokredit bankda 3 299 mlrd. so'mga hamda O'zsanoatqurilish bankida 5 753 mlrd. so'mga oshishga erishilgan.

Banklar faoliyatining 2023-yilda asosiy ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, respublika bank tizimining aktivlari 652,2 trln. so'mni tashkil etgan. Bu o'tgan yilga nisbatan 17 foizga ko'p. Majburiyatlar 13 foizga oshib, 539 trln. so'mni, kreditlar qoldig'i 22 foizga o'sib, 465,5 trln. so'mni, omonatlar qoldig'i esa o'tgan yilgi 51 foizga nisbatan 6 foizga o'sib, qariyb 230 trln. so'mni tashkil etgan.

4-jadval. Tijorat banklarining kreditlari to'g'risida ma'lumot (mlrd. so'm).

№	Banklarning nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	14532	19793	24304	32658	29046
2.	Biznesni rivojlantirish banki	8475	11446	13823	20292	17496
3.	Mikrokredit bank	2640	4772	8540	13319	10816
4.	O'zsanoatqurilish bank	17486	26322	39898	48076	43148

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklarining jami kredit portfeli 2023-yil davomida 81,4 trln. so'mga o'sib, yil yakunida 471,4 trln. so'mni tashkil qilgan. Kredit portfelining miqdoriy jihatdan nisbatan ko'proq



o'sishi Kapitalbank (11,2 trln. so'm), Agrobank (10,6 trln. so'm), O'zmilliybank (10,0 trln. so'm), O'zSQB (9,0 trln. so'm), Ipoteka bank (4,6 trln. so'm) hamda Hamkor bank (4,4 trln. so'm)da kuzatilgan. Garant bank (-210,2 mlrd. so'm) va Oktobank (91,5 mlrd. so'm)larda kredit portfeli miqdori kamaygan. Tahlil qilinayotgan banklarimizda 2023 yilda 2022 yilga nisbatan Ipoteka bankda -3 639 mlrd. so'mga, Biznesni rivojlantirish bankida -2 796 mlrd. so'mga, Mikrokredit bankda -2 503 mlrd. so'mga hamda O'zsanoatqurilish bankida -4 928 mlrd. so'mga kamayib ketgan.

"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra, 2023-yil 1-sentyabrdan 2025-yil 1-yanvargacha qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdori bosqichma-bosqich oshirilishi belgilangan.

100 mlrd so'm – 2023-yil 1-sentyabrgacha;

200 mlrd so'm – 2023-yil 1-sentyabrdan;

300 mlrd so'm – 2024-yil 1-apreldan;

500 mlrd so'm – 2025-yil 1-yanvardan.

Regulyator yangi talablarni bajarish uchun ustav kapitali etarli bo'lmagan banklarga boshqa banklar bilan qo'shilishni tavsiya qilgan. Aks holda, bank faoliyatini amalga oshirish bo'yicha lisenziya bekor qilinishi belgilangan.

5-jadval. Tijorat banklarining kapitali va ustav kapitali to'g'risida ma'lumot (mlrd. so'm).

№	Banklarning nomi	Ko'rsatkichlar	Yillar				
			2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	Kapitali	1611	3730	4274	5917	5087
		Ustav kapitali	838	977	2809	2861	2984
2.	Biznesni rivojlantirish banki	Kapitali	1235	1446	2414	2944	2696
		Ustav kapitali	1079	1079	1859	1859	1859
3.	Mikrokredit bank	Kapitali	665	1625	1738	3644	2321
		Ustav kapitali	694	1642	1641,7	2197	3547
4.	O'zsanoatqurilish bank	Kapitali	2848	6128	6704	7828	7701
		Ustav kapitali	1884	4640	4640	4640	4640

Tahlil qilinilayotgan banklarda kapitali va ustav kapitali oldingi yillarga nisbatan o'zgarish oxirgi yilga nisbatan o'sib borish tendensiyasini saqlab qolgan bo'lsa, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan kamayib ketgan. Jumladan, Ipoteka bankda kapitali -830 mlrd. so'mga, Biznesni rivojlantirish banki -248 mlrd. so'mga, Mikrokredit bank -1323 mlrd. so'mga hamda O'zsanoatqurilish bank -127 mlrd. so'mga kamayib ketgan.

6-jadval. Tijorat banklarining foizli daromad va xarajatlari to'g'risida 1 yanvar holatiga ma'lumot (mlrd. so'm).

№	Banklarning nomi	ko'rsatkichlar	Yillar				
			2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	Foizli xarajat	751	1249	1802	2984	4017
		Foizli daromad	1304	2279	3197	4890	6427
2.	Biznesni rivojlantirish banki	Foizli xarajat	333	593	814	1055	1540
		Foizli daromad	689	1125	1415	1901	2613
3.	Mikrokredit bank	Foizli xarajat	107	193	425	683	938
		Foizli daromad	311	498	944	1115	1621
4.	O'zsanoatqurilish bank	Foizli xarajat	687	1133	1667	1055	1540
		Foizli daromad	1359	2290	3289	1901	2613

Tijorat banklarini foizli daromad 2023-yilda 2022-yilga nisbatan o'zgarishi ijobiy bo'lgan. Jumladan, Ipoteka bankda 1 537 mlrd. so'mga, Biznesni rivojlantirish bankida 712 mlrd. so'mga, Mikrokredit bankda 506 mlrd. so'mga hamda O'zsanoatqurilish bankida 712 mlrd. so'mga oshishga erishilgan. Foizli xarajatlari ko'rsatkichlari bo'yicha Ipoteka bankda 1 033 mlrd. so'mga, Biznesni rivojlantirish bankida 485 mlrd. so'mga, Mikrokredit bankda 255 mlrd. so'mga hamda O'zsanoatqurilish bankida 485 mlrd. so'mga oshgan.

Bizga ma'lumki foizli xarajatlar – bu pul mablag'leri yoki ularning ekvivalentlaridan foydalanganlik uchun xarajatlar. Foizli xarajatlar har qanday diskont yoki qarz qimmatli qog'ozlari yoxud qarz mablag'larining bosh-



lang'ich balans qiymati bilan ularning so'ndirish summalari o'rtasidagi boshqa farqlarning amortizatsiya summasini o'z ichiga oladi.

7-jadval. Tijorat banklarining kapital etarlilik darajasi to'g'risida 1 yanvar holatiga ma'lumot (%).

№	Banklarning nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	13,0	25,6	13,0	14,4	16,8
2.	Biznesni rivojlantirish banki	14,7	15,2	14,0	17,1	16,0
3.	Mikrokredit bank	21,5	23,7	14,6	22,9	25,1
4.	O'zsanoatqurilish bank	13,5	23,0	17,0	23,0	24,2

Tijorat banklarini kapitalini etarlilik koeffitsienti belgilangan me'yorlar talabi bo'yicha taqqoslaganimizda, banklardagi holat ijobiy deb aytish mumkin. Makro stress-test natijalari asosiy va xatarli ssenariylar bo'yicha O'zbekiston bank tizimining turli shoklarga bardoshlilikini ko'rsatmoqda. Bank tizimining umumiy kapital monandlilik ko'rsatkichi asosiy hamda xatarli ssenariylar bo'yicha Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan minimal talablardan yuqori shakllanmoqda. 2025-yil oxiriga kelib, xatarli ssenariy bank sektori bo'yicha kapital monandlilik ko'rsatkichi 13,6 foizda shakllanishini ko'rsatmoqda. Shuningdek, ushbu ssenariyda kreditlar bo'yicha sezilarli yo'qotishlarning yuzaga kelishi, qimmatli qog'ozlar va uy-joy bo'yicha yo'qotishlarning mavjudligi hamda tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning ko'payishiga qaramay, sof foizli va foizsiz daromadlarning yuqori ekanligi o'rnatilgan minimal talabdan yuqori bo'lishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlardan foydalangan holda tijorat banklarini bankometr modelidan foydalangan holda barqarorligini tahlil qilamiz. Olingan natijalar asosida ularning reyting ko'rsatkichini belgilab olamiz.

8-jadval. X1= kapitalning aktivlarga nisbati (CA): $\geq 4\%$.

№	Banklarning nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	8,2	15,8	13,2	14,8	11,5
2.	Biznesni rivojlantirish banki	13,2	11,4	15,2	14,2	10,8
3.	Mikrokredit bank	22,1	27,6	16,9	27,0	13,8
4.	O'zsanoatqurilish bank	9,3	17,7	13,7	13,9	12,4

Birinchi kattalik bo'yicha deyarli barcha tahlil qilayotgan banklarimizda ijobiy holatni ko'rish mumkin. Belgilangan mezon 4% yuqori bo'lishi belgilangani ko'radigan bo'lsak, eng yaxshi ko'rsatkich Mikrokredit bankda bo'lib, qolgan banklarga nisbatan kapitalning aktivlarga nisbati yuqoriroq bo'lgan.

9-jadval. X2= ustav kapitalning aktivlarga nisbati (EA): $\geq 2\%$.

№	Banklarning nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	4,2	4,1	8,7	7,2	6,8
2.	Biznesni rivojlantirish banki	11,5	8,5	11,7	9,0	7,5
3.	Mikrokredit bank	23,1	27,9	16,0	16,3	21,1
4.	O'zsanoatqurilish bank	6,2	13,4	9,5	8,2	7,5

Ustav kapitalning aktivlarga nisbati bo'yicha ko'rsatkichlar belgilangan mezondan yuqori bo'lib, ijobiy holatni belgilab bergan. Deyarli barcha banklarda 2% dan yuqori bo'lgan, ayniqsa eng yaxshi ko'rsatkich Mikrokredit bankda ekanligini ko'rish mumkin.



10-jadval. X3= kapital etarlilik darajasi (CAR): $40\% \leq CAR \leq 8\%$.

№	Banklarning nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	13,0	25,6	13,0	14,4	16,8
2.	Biznesni rivojlantirish banki	14,7	15,2	14,0	17,1	16,0
3.	Mikrokredit bank	21,5	23,7	14,6	22,9	25,1
4.	O'zsanoatqurilish bank	13,5	23,0	17,0	23,0	24,2

Tijorat banklarida kapital etarlilik darajasi (CAR) belgilangan mezonlari bo'yicha, barcha banklarda ijobiy holatda ekanligini ko'rish mumkin.

11-jadval. X4= ishlaymagan kreditlarni umumiy kreditlarga nisbati (NPL): $\leq 15\%$.

№	Banklarning nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	1,3	2,3	3,3	2,5	4,7
2.	Biznesni rivojlantirish banki	2,0	1,5	4,3	3,9	8,9
3.	Mikrokredit bank	4,5	4,0	5,9	4,8	6,0
4.	O'zsanoatqurilish bank	0,19	1,0	3,8	2,8	2,2

Tahlil qilinayotgan banklarimizda muammoli kreditlar ulushi ham belgilangan me'yordan past bo'lib, bu borada banklar ijobiy holatni ko'rsatgan. Eng yaxshi ko'rsatkich bu O'zsanoatqurilish bankida ekanini ko'rish mumkin.

X5= xarajatning daromadga nisbati (CI) : $\leq 40\%$.

№	Banklarning nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	57,6	54,8	56,4	61,0	62,5
2.	Biznesni rivojlantirish banki	48,3	52,7	57,5	55,5	58,9
3.	Mikrokredit bank	34,4	38,8	45,0	61,3	57,9
4.	O'zsanoatqurilish bank	50,6	49,5	50,7	55,5	58,9

Keyingi ko'rsatkich xarajatlarning daromadga nisbati bo'yicha banklarning holatini ijobiy deb bo'lmaydi. Deyarli barcha banklarda 2023-yilda belgilangan mezondan yuqori bo'lgan. Demak, barcha banklarda foizli daromadlarga nisbatan foizli xarajatlari ortib ketgan. Ayniqsa, bu ko'rsatkich ipoteka bankida salbiy holatda boshqa banklarga nisbatan yuqori bo'lgan.

13-jadval. X6= kreditlarning aktivlarga nisbati (LA) : $\leq 65\%$.

№	Banklarning nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	73,6	83,9	75,0	81,6	65,7
2.	Biznesni rivojlantirish banki	90,7	90,1	86,8	98,0	70,3
3.	Mikrokredit bank	87,8	81,0	83,0	98,8	64,5
4.	O'zsanoatqurilish bank	57,3	75,9	81,3	85,1	69,3

Tijorat banklarining kreditlarning aktivlarga nisbati koeffisienti bo'yicha belgilangan mezonlardan ya'ni 65% dan yuqori bo'lgan banklarga Ipoteka bankini keltirib o'tish mumkin. Bankning 2023 yilda ham ko'rsatkichi



65,7%ni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha faqatgina Mikrokredit bankini ko'rsatkichi 2023-yilda 64,5%ni tashkil etmoqda.

Olingan natijalar asosida tijorat banklarini bankometr modeli asosida yillar kesimida natijalarini hisoblab topamiz.

14-jadval. Bankometr modeli asosida yillar kesimida natijalari.

№	Banklarning nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Ipoteka bank	110,3	169,6	124,6	133,7	132,1
2.	Biznesni rivojlantirish banki	137,0	133,3	140,4	150,1	132,3
3.	Mikrokredit bank	184,3	204,3	145,9	201,0	180,6
4.	O'zsanoatqurilish bank	106,9	168,9	141,5	163,6	159,0

Bankometr modelini mezonlari asosida tahlil qiladigan bo'lsak, barcha banklarimizda "S" qiymati 70 dan yuqori bo'lgan banklar to'lovga layoqatli bo'lib, "Super Sound Bank" (qulay moliyaviy ahvolga ega) ekanligini ko'rsatdi. Bankometr modeli orqali banklarni reytingini ko'rganimizda 2019-yilda Mikrokredit bank 184,3 koef-fisienti bilan birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, qolgan yillarda ham reytingni birinchi o'rinni egallagan. Keyingi o'rinlarni Biznesni rivojlantirish banki 2019-yilda 2-o'rinni, 2020-yilda ipoteka banki 169,6 bilan ikkinchi o'rinni, 2021-yilda 141,5 ball bilan O'zsanoatqurilish banki, 2022–2023-yillarda ikkinchi o'rinni O'zsanoatqurilish banki egallagan.

XULOSA VA TAKLILFLAR

Yuqorida olingan tahlillar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Bankning barqarorligini tahlil qilish uchun ko'plab modellar mavjud, ular orasida Bankometr yaqinda ishlab chiqilgan va bank barqarorligini sintez qilish uchun CAMELS tizimi va CLSA-stress test parametrlaridan olingan moliyaviy koeffisientlarni foizlarda o'ziga o'zgartirilgan holda ishlatadigan oddiy yondashuv ekanligi asoslandi. Ushbu modelda bankning mustahkamligi to'lov qobiliyati balli (S-Score) deb ataladigan ball bilan o'lchanadi. To'lovga layoqatsizlik bilan bog'liq muammolarni aniqlash va Bankometr yondashuvida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishda ushbu holat bankning ichki boshqaruvi uchun foydali bo'lishi mumkin. Undan nafaqat jismoniy shaxslar, balki nazorat qiluvchi organlar ham istalgan bankning barqarorligi yoki to'lov qobiliyati holatini bir zumda ko'rib chiqish uchun foydalanishlari mumkinligi asoslandi.

2. XVF tavsiyalaridan so'ng tadqiqotchi tashabbusni o'z zimmasiga oldi va minimal parametrlar soni bilan maksimal aniq natijalarni ta'minlash sifatiga ega Bankometr deb nomlangan keng qamrovli usuldan foydalandi. Uning umumiy ko'rinishi, "Bankometr" modelining ifodasi quyidagicha:

$$S = 1,5X1 + 1,2X2 + 3,5X3 + 0,6X4 + 0,3X5 + 0,4X6$$

Bu erda, "S" to'lov qobiliyatini anglatadi, bu qaram o'zgaruvchidir. Ushbu model ostidagi mustaqil o'zgaruv-chilar:

X1= kapitalning aktivlarga nisbati (CA): $\geq 4\%$

X2= sof kapitalning aktivlarga nisbati (EA): $\geq 2\%$

X3= kapital etarililik darajasi (CAR): $40\% \leq CAR \leq 8\%$

X4= ishlaydigan kreditlarni umumiy kreditlarga nisbati (NPL): $\leq 15\%$

X5= xarajatning daromadga nisbati (CI) : $\leq 40\%$

X6= kreditlarning aktivlarga nisbati (LA) : $\leq 65\%$

3. Bankometr tasnifi bo'yicha "Super Sound Bank" deb tasniflanishi mumkin. Bankning moliyaviy inqirozga qarshi zaifligini bashorat qilish banklar, kreditorlar va investorlar uchun juda muhim masaladir. Bank to'lovga layoqatsiz bo'lganida, kreditorlar asosiy qarz va foiz to'lovlarining bir qismini yo'qotish tufayli mahrum bo'lishadi, aksiyadorlar esa barcha investisiyalarini yo'qotishi mumkin. Agar bank moliyaviy tanglikdan keyin faoliyatini tiklasa ham, bankning omon qolish uchun katta xarajatlari tufayli bankning kelajakdagi o'sishi sezilarli darajada to'sqinlik qiladi.

Mezon: "S" qiymati 70 dan yuqori bo'lgan banklar to'lovga layoqatli bo'lib, "Super Sound Bank" (qulay moliyaviy ahvolga ega), "S" qiymati 50 dan kam bo'lgan banklar esa "To'lovga layoqatsiz" (yuqori xavf ostida bo'lgan) deb nomlanadi. moliyaviy tanglik 50 dan 70 gacha bo'lgan "S" qiymatiga ega bo'lgan banklar o'rtacha holatda va xatolar tasnifiga moyilligi sababli "Kulrang zona" ga ($50 < S < 70$ oralig'idagi maydon) tasniflanishi mumkin.



4. Bankometr modelidan foydavlangan holda respublikamizda faoliyat olib borayotgan 4 tijorat banklari tahlil qilindi. Bankometr modelini mezonlari asosida tahlil qiladigan bo'lsak, barcha banklarimizda "S" qiymati 70 dan yuqori bo'lgan banklar to'lovga layoqatli bo'lib, "Super Sound Bank" (qulay moliyaviy ahvolga ega) ekanligini ko'rsatdi. Bankometr modeli orqali banklarni reytingini ko'rganimizda 2019-yilda Mikrokredit bank 184,3 koeffitsienti bilan birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, qolgan yillarda ham reytingni birinchi o'rinni egallagan. Keyingi o'rinlarni Biznesni rivojlantirish banki 2019-yilda 2-o'rinni, 2020-yilda ipoteka banki 169,6 bilan ikkinchi o'rinni, 2021-yilda 141,5 ball bilan O'zsanoatqurilish banki, 2022–2023-yillarda ikkinchi o'rinni O'zsanoatqurilish banki egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 11 ноябрдаги "Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида"ги янги тахрирдаги ЎПҚ-582-сон Қонуни. 5-модда. <https://lex.uz/acts/-4590452>
2. Sain, A., and Kashiramka, S. (2023). The relationship between profitability and stability in commercial banks: evidence from BRICS. *Global Business Review*. <https://doi.org/10.1177/09721509231184765>
3. Berger A.N., Klapper L.F. & Turk-Ariss, R. (2009). Banking competition and financial stability. *Journal of Financial Services Research*, 35(2), 99–118. <https://doi.org/10.1007/s10693-008-0050-7>
4. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/6ec/wstgpdzq2yvr9fzn69l3k26fboyheyh5/2023-yilning-I-yarim-yilligi-uchun-moliyaviy-barqarorlik-sharhi.pdf>
5. <https://lex.uz/ru/docs/6600413> (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони)
6. https://www.researchgate.net/publication/275675007_Development_of_a_Methodology_of_Evaluation_of_Financial_Stability_of_Commercial_Banks
7. <https://pdf.sciencedirectassets.com/280203>. One approach to complex evaluation of financial stability of commercial banks Ramin Rzayeva *, Sevinj Babayeva a Institute of Control Systems of Azerbaijan National Academy of Science, Baku AZ1141, Azerbaijan
8. https://www.researchgate.net/publication/375262357_Predicting_Financial_Failure_Using_The_Bankometer_S-Score_Model_A_Study_of_A_Sample_of_Iraqi_Private_Banks
9. https://www.researchgate.net/publication/364513455_Analisis_Kebangkrutan_Bank_Melalui_Rentabilitas_Capital_dan_Bankometer_Studi_Pada_Bank_Umum_Indonesia_dan_Malaysia
10. <https://www.scoperatings.com/ScopeRatingsApi/api/downloadmethodology?id=8656bc65-34d6-4f18-8f31-6ad929cb-ccdf>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

